

Ғайрат ИЗЗАЕВ

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

SOLIQLAR VOSITASIDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari, soliq tizimining bu boradagi roli, shuningdek, soliqlarni yaxshilash orqali noqonuniy faoliyatni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar ko‘rib chiqiladi. Yashirin iqtisodiyotning kengayishi davlat byudjeti uchun xavf tug‘dirib, ijtimoiy adolatsizlikka olib kelishi mumkin, shuning uchun soliq boshqaruvi va audit tizimining samaradorligini oshirish juda muhim. Maqolada soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq nazoratini kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi metodlar orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar va ularning o‘zgarishi soliq siyosatining samaradorligini oshirishda qanday rol o‘ynashini yoritib, respublikada yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun soliq tizimini optimallashtirish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: yashirin iqtisodiyot, soliq siyosati, soliq tizimi, soliq nazorati, soliq modernizatsiyasi, iqtisodiy samaradorlik, xalqaro tajriba, noqonuniy faoliyat.

WAYS TO REDUCE THE SHADOW ECONOMY THROUGH TAXES

Abstract. This article discusses the social and economic consequences of the shadow economy, the role of the tax system in this regard, as well as strategies aimed at reducing illegal activity by improving taxes. The expansion of the shadow economy can pose a threat to the state budget and lead to social injustice, so it is very important to improve the efficiency of tax administration and the audit system. The article provides practical recommendations aimed at reducing the shadow economy through such methods as modernizing the tax system, strengthening tax control and introducing digital technologies. Also, highlighting the role of international experience and its changes in increasing the efficiency of tax policy, the need to optimize the tax system to reduce the shadow economy in the republic is substantiated.

Keywords: shadow economy, tax policy, tax system, tax control, tax modernization, economic efficiency, international experience, illegal activity.

Kirish

Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Yashirin iqtisodiyot – bu rasmiy hisob-kitoblardan chetda qolgan, soliq to‘lashdan

qochadigan yoki hukumat tomonidan nazorat qilinmaydigan iqtisodiy faoliyatni anglatadi. Ushbu jarayon nafaqat davlat byudjetiga zarar yetkazadi, balki jamiyatda adolatsizlikni keltirib chiqaradi, chunki yashirin iqtisodiyotda ishlaydigan shaxslar soliqlardan chetlab o'tib, rasmiy sektordagi tadbirkorlar va fuqarolarga nisbatan nohaq raqobat yaratadi. Yashirin iqtisodiyotning o'sishiga bir qancha omillar sabab bo'ladi. Ularning eng asosiylaridan biri – soliq yukining yuqoriligi va soliqlarning ortiqcha murakkabligi. Shuningdek, soliq idoralari va nazorat tizimlarining samarali ishlamasligi, fuqarolarda soliq to'lashga bo'lgan ijtimoiy ongning pastligi ham yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beradi. Bu muammolar faqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy sohalarida ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki yashirin iqtisodiyotning kengayishi korruptsiya, adolatsizlik va ijtimoiy notenglikni kuchaytiradi.

Dunyo miqiyosida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda samarali choralar ko'rishga intilishlar mavjud bo'lib, bunda ko'pgina davlatlar o'z soliq siyosatini qayta ko'rib chiqmoqdalar. Bularning orasida soliq tizimining modernizatsiyasi, soliq nazorati va auditning kuchaytirilishi, shuningdek, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish kabi chora-tadbirlar mavjud. Bu usullar orqali nafaqat soliq yig'imlarini oshirish, balki iqtisodiyotning ochiq va adolatli bo'lishiga ham erishish mumkin. Ammo, har doim ham mamlakatda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun faqat soliq siyosatini takomillashtirish kifoya qilmaydi. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda jamiyatning soliq to'lash madaniyatini oshirish, fuqarolarda soliq to'lashning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish ham muhimdir. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiyotni qonuniylashtirish, balki jamiyatda soliqni to'lashning ijtimoiy mas'uliyat sifatida qabul qilinishini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, soliq siyosatining va soliq nazoratining samaradorligini oshirish, shuningdek, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yangi texnologiyalarni, masalan, raqamli soliq idoralari va elektron hisobotlarni joriy etish, soliq to'lovchilarni aniqlash va monitoring qilishni osonlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va davlat byudjetini to'ldirishda samarali yechim bo'lishi mumkin. Xuddi shunday, soliq siyosatining optimallasuvi faqatgina iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash bilan cheklanmaydi. U jamiyatda soliq to'lashga bo'lgan ijtimoiy ongni oshirish, adolatli soliq tizimini yaratish va fuqarolarni davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Soliq tizimining shaffofligi va adolatliligi, shuningdek, soliq yukining optimallashtirilishi, yashirin iqtisodiyotning kamayishiga va iqtisodiyotning rasmiylashuviga katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili

Yashirin iqtisodiyot va soliq tizimi o'rtasidagi murakkab munosabatni o'rganish ko'plab tadqiqotlarda asosiy mavzu sifatida ko'riladi. Schneider va Enste[1] yashirin iqtisodiyotning hajmini baholash metodlarini ishlab chiqib, uning o'sishiga yuqori soliq stavkalari va byurokratik to'siqlar sabab bo'lishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, Medina va Schneider[2] esa global miqyosdagi yashirin iqtisodiyot hajmini o'rganib, soliqlarni kamaytirish bo'yicha kompleks yondashuvlar zarurligini qayd etadi. Bundan tashqari, Tanzi[3] esa soliq nazoratining yetarli darajada bo'lmasligi AQShda yashirin iqtisodiyotning sezilarli darajada kengayishiga olib kelganini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlar yashirin iqtisodiyotning mohiyati va soliq tizimi bilan o'zaro aloqalarini chuqur tahlil qilish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya

Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha soliq siyosatining samaradorligini tahlil qilishda aralash metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar kombinatsiyasi qo'llanilib, o'rganilayotgan mavzuga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilingan. Xalqaro tajribalardan foydalangan holda, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha samarali strategiyalar va eng yaxshi amaliyotlar tahlil qilinib, soliq siyosatini modernizatsiya qilish va soliq nazoratini kuchaytirish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda mavjud nazariy yondashuvlar o'rganilgan. Maqolada soliq to'lovchilarning huquqiy va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga qaratilgan usullar ko'rib chiqilgan. Olingan natijalar asosida yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilib, ular amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan strategiyalar sifatida taklif etilgan.

Adabiyotlar sharhi

Soliq ma'muriyati va uning samaradorligi yashirin iqtisodiyotni kamaytirishdagi hal qiluvchi omillardan biridir. OECD[4] hisobotida soliq ma'muriyatining ilg'or tajribalarini joriy etish va shaffof boshqaruvni yo'lga qo'yishning ijobiy natijalari ta'kidlangan. Slemrod va Gillitzer[5] esa soliq auditining ahamiyatini va davlat organlarining jiddiy monitoring olib borish zarurligini ko'rsatadi. Alm va Torgler[6] tadqiqotlari soliqlarni to'lash madaniyatining yuksalishi yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi. Soliq stavkalari va ularni o'z vaqtida to'lashni rag'batlantirish strategiyalari yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda alohida o'rin tutadi. Allingham va Sandmo[7] matematik modellar yordamida yuqori soliq stavkalari soliqdan qochish va yashirin iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishini ko'rsatgan. Feld va Frey[8] soliqlarning adolatli va shaffof bo'lishi ularni o'z

vaqtida to'lashni rag'batlantirishini qayd etadi. Torgler[9] soliqlarni o'z vaqtida to'lash madaniyatining shakllanishi davlatning iqtisodiy siyosatiga bo'lgan ishonch darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Texnologik yechimlar va raqamli nazorat tizimlari yashirin iqtisodiyotni kamaytirish yo'lida yangi imkoniyatlar bo'yicha UNCTAD[10] raqamli texnologiyalarning soliq ma'muriyatidagi roli va blokcheyn texnologiyasining soliqlarning shaffofligini oshirishdagi o'rnini qayd etadi. OECD[11] elektron hisob-fakturalar va hujjatlashtirish tizimining joriy etilishi yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali choralar ekanini ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalar soliqlarni nazorat qilish va ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.


Rus olimlaridan Bobkov[12] soliqlarni soddalashtirish va davlat boshqaruvining shaffofligini oshirish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirishning amaliy usullarini taklif etadi. Lizina[13] esa Rossiyada yashirin iqtisodiyotning ijtimoiy determinantlariga e'tibor qaratadi. U yashirin iqtisodiy faoliyatning aholining daromadlarini optimallashtirishga qaratilganligi va soliqlarga bo'lgan ishonchsizlik bilan bog'liqligini asoslab bergan. Chomanov[14] Rossiyada yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda fiskal choralar samaradorligini o'rganadi. U soliqlarni soddalashtirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish uchun asosiy vosita ekanini qayd etgan. Mahalliy olimlardan Alimov va Isroilov[15] ishlarida yashirin iqtisodiyotning sabablari va oqibatlari iqtisodiy model asosida tahlil qilingan. Unda yashirin iqtisodiyotning pasayishi uchun davlat boshqaruvining shaffofligini oshirish va korrupsiyani kamaytirish muhimligi takidlangan. Ibragimov[16] esa O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning yashirin iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha fikr mulohazalar yuritilgan. Umirov[17] esa, mamlakatda soliq siyosati va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib, soliqlarni soddalashtirish va biznes jarayonlarini qulaylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Raximjonov[18] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda so'nggi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohaslarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarining ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan.

Tahlil va natijalar

Yashirin iqtisodiyotning O'zbekiston iqtisodiy tizimidagi ulushi hanuzgacha sezilarli darajada yuqori bo'lib qolmoqda. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, 2022-yilda yashirin iqtisodiyot hajmi mamlakat YAIMning 40-50 foizini tashkil etgan. Buning asosiy sabablari sifatida yuqori soliqlar, soliq nazoratining cheklanganligi, ayrim sohalarda korrupsiyaning mavjudligi va kichik biznesning

qonuniy faoliyat yuritish uchun yetarli qulayliklarga ega emasligi qayd etiladi. Bundan tashqari, ish beruvchilar tomonidan mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmaslik, naqd pul aylanishining yuqori darajada qolishi va rasmiy statistikadan tashqarida qolayotgan faoliyatlar yashirin iqtisodiyotning kengayishiga olib kelmoqda.


2023-yilda Davlat soliq qo‘mitasi va boshqa iqtisodiy institutlar tomonidan qabul qilingan islohotlar yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan muhim choralardan biri bo‘ldi. Xususan, elektron hisob-fakturalar tizimining kengaytirilishi va raqamlashtirish darajasining oshirilishi iqtisodiy shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Moliya vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yildan 2023-yilga o‘tgan davrda onlayn-kassalardan foydalanish natijasida aniqlangan yashirin faoliyatlar hajmi 25 foizga oshgan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini pasaytirish, soliqlarni o‘z vaqtida va oson to‘lash imkonini beruvchi onlayn platformalarni joriy etish fuqarolarning soliqlarga bo‘lgan ishonchini oshirdi. Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2023-yilgi hisobotida O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushi YAIMga nisbatan 3-5 foizga qisqarganligi qayd etilgan.[19] Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilar ekanmiz, soliqqa tortilishi ehtimoli juda past bo‘lgan naqd pul aylanmasining o‘zgarish dinamikasini tahlil qilishimiz zarur bo‘ladi.(1-rasm)



1-rasm. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI)ning yashirin iqtisodiyot va naqd pul aylanishi tezligi bo‘yicha tahlili [20]

Rasmda ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushi 2005-yildan 2022-yilgacha davomida sezilarli o‘zgarishlarga ega. 2005-yilda yashirin iqtisodiyot YAIMning 30,9 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 53,2 foizgacha oshgan. Ushbu davr mobaynida yashirin iqtisodiyot ulushining eng yuqori ko‘rsatkichlari 2019-yilda (58,9%) va 2022-yilda (53,2%) qayd etilgan. Bu iqtisodiyotning formal sektorga to‘liq o‘ta olmaganligini va soliq ma‘muriyatining samaradorligi hali yetarli darajada emasligini anglatadi. ul aylanish tezligi ham yillar davomida o‘zgarib kelgan. 2017-yilda bu ko‘rsatkichning sezilarli pasayishi (17,8) kuzatilgan bo‘lsa, 2021-yilda u eng yuqori nuqtaga (28,5) yetgan. Pul aylanish tezligining oshishi aholining naqd puldan foydalanish darajasining yuqoriligi va formal bank tizimidan chetda bo‘lgan operatsiyalarning ko‘payganligini aks ettiradi. 2022-yilda bu ko‘rsatkich bir oz pasayib, 23,9 ni tashkil qilgan. Bunda pul aylanish tezligi oshgan davrlarda yashirin iqtisodiyot hajmining ham ko‘payganini ko‘rish mumkin. Bu aholi va tadbirkorlar tomonidan noformal iqtisodiy faoliyatga moyillik yuqori ekanligini ko‘rsatadi. 2020-yildan boshlab pul aylanish tezligining pasayishi raqamlashtirish tizimlarining keng joriy etilishi va bank tizimidan foydalanish darajasining ortgani, keng ko‘lamli soliq islohotlarining amalga oshirilganligi bilan bog‘liq deya olishimiz mumkin.

Aynan so‘nggi 5 yillikda amalga oshirilgan soliq islohotlari yashirin iqtisodiyotga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Bunda eng asosiy omil soliq yuki bilan bog‘liq bo‘lib, 2019-2024-yillarda O‘zbekistonda soliq yukini kamaytirish bo‘yicha quyidagi muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda soliq yukini kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida yashirin iqtisodiyotga aynan soliq mamurchiligi natijasida ta'sir o'tkaza olgan va yashirin iqtisodiyot darajasini minimal darajada ushlab turayotgan mamlakatlarning ilg'or tajribalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Shvetsiya yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda soliq tizimini shaffof va barqaror qilishga katta e'tibor qaratgan. Ish haqi solig'i yukini kamaytirish va QQS bo'yicha yuqori darajadagi nazoratni joriy qilish orqali fuqarolarni qonuniy iqtisodiy faoliyatga jalb qilishga erishgan. Shuningdek, elektron hisob-kitob tizimlarining keng joriy qilinishi naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytirgan. Bugungi kunda Shvetsiyada yashirin iqtisodiyot YaIMga nisbatan 8% atrofida baholanmoqda[21].

Germaniya yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun yuqori darajadagi soliq intizomini va zamonaviy raqamli nazorat tizimlarini qo'llagan. Bu, xususan, ijtimoiy ta'minot tizimining samaradorligi va soliq to'lashni motivatsiya qiluvchi imtiyozlar orqali amalga oshirilgan. 2024-yil holatiga ko'ra, Germaniyada yashirin iqtisodiyot YaIMning 7,75% ni tashkil qiladi, bu juda past ko'rsatkich hisoblanadi.[21]

Yangi Zelandiya yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda "Yagona Soliq Identifikatsiyasi" (IRD) tizimini joriy qilgan. Bu tizim har bir fuqaroni iqtisodiy operatsiyalarni kuzatishga va soliqlardan bo'yin tovlamaslikka majbur qiladi. Qonunlarning qat'iy ijrosi va biznesni yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali mamlakat yashirin iqtisodiyot ulushini 9% dan past darajada ushlab turishga muvaffaq bo'lmoqda.[22]

Avstraliya yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun raqamli tizimlarni rivojlantirish va naqd pulsiz to'lovlarni rag'batlantirishga e'tibor qaratgan. Soliq solish va biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari soddalashtirilgan, bu esa yashirin faoliyatni qonuniylashtirishni osonlashtirgan. Natijada, yashirin iqtisodiyotning ulushi bugungi kunda YaIMga nisbatan taxminan 10% ni tashkil qiladi.[23]

Ushbu davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlar soliqlarning shaffofligini oshirish, raqamli tizimlardan foydalanish va fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashdan iborat.

Xulosa

Yashirin iqtisodiyotning o'sishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy sohalarida ham muammolarni keltirib chiqaradi. Soliq to'lashni kamaytirish va nazorat tizimlarining zaifligi, shuningdek, fuqarolarda soliq to'lashga bo'lgan ijtimoiy ongning pastligi yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu muammo ko'plab davlatlarda keng tarqalgan bo'lib, u jamiyatda adolatsizlikni

kuchaytiradi, iqtisodiyotni rasmiylashtirishni qiyinlashtiradi va davlat byudjetiga zarar yetkazadi.

Biroq, yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali kurashishda bir nechta chora-tadbirlar muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Soliq siyosatini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, va soliq nazoratini kuchaytirish orqali soliq yig'imlarini oshirish va iqtisodiyotni adolatli qilish mumkin. Soliq to'lovchilarni ijtimoiy mas'uliyatga undash, fuqarolarda soliq to'lash madaniyatini oshirish va davlatga bo'lgan ishonchni mustahkamlash ham muhim omillardan biridir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Shvetsiya, Germaniya, Yangi Zelandiya va Avstraliya kabi mamlakatlar soliq tizimlarini shaffof va zamonaviy raqamli nazorat bilan kuchaytirish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga muvaffaq bo'lgan. Bu mamlakatlar naqd pulsiz to'lovlarni rag'batlantirish, soliqlarni soddalashtirish va elektron tizimlarni joriy qilish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini past darajada ushlab turishmoqda.

O'zbekiston uchun ham soliq islohotlarini davom ettirish, raqamlashtirishni kengaytirish, va jamiyatda soliq to'lashga bo'lgan ijtimoiy ongni oshirish zarur. Bu chora-tadbirlar yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va iqtisodiyotning rasmiylashuvi uchun muhim qadam bo'ladi..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schneider, F., & Enste, D. H. (2000). Shadow economies: Size, causes, and consequences. *Journal of economic literature*, 38(1), 77-114.
2. Medina, L. (2018). *Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years*.
3. Tanzi, V. (1983). The underground economy in the United States: Annual estimates, 1930-80 (L'économie clandestine aux Etats-Unis: Estimations annuelles, 1930-80)(La "economía subterránea" de Estados Unidos: Estimaciones anuales, 1930-80). *Staff Papers-International Monetary Fund*, 283-305.
4. Tax Administration 2019 : Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies | Tax Administration : Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies | OECD iLibrary https://www.oecd-ilibrary.org/taxation/tax-administration-2019_74d162b6-en
5. Slemrod, J., & Gillitzer, C. (2014). Insights from a Tax-systems Perspective. *CESifo Economic Studies*, 60(1), 1-31.
6. Alm, J., & Torgler, B. (2006). Culture differences and tax morale in the United States and in Europe. *Journal of economic psychology*, 27(2), 224-246.
7. Allingham, M. G., & Sandmo, A. (1972). Income tax evasion: A theoretical analysis. *Journal of public economics*, 1(3-4), 323-338.

8. Feld L., Frey B. Tax Compliance as the Result of a Psychological Tax Contract: The Role of Incentives and Responsive Regulation (2007).
9. Torgler, B. (2007). Tax compliance and tax morale: A theoretical and empirical analysis. Edward Elgar Publishing.
10. Trentini, C. (2021). A reassessment of UNCTAD's transnationality indices in the digital economy. Transnational Corporations Journal, 28(3).
11. Tax Administration 3.0 and Electronic Invoicing | OECD https://www.oecd.org/en/publications/tax-administration-3-0-and-electronic-invoicing_2ffc88ed-en.html
12. Бобков Вячеслав Николаевич, Одинцова Елена Валерьевна, & Коваленко Владимир Васильевич (2020). Неустойчивая занятость - глобальная проблема современности: как снизить ее масштабы в России?. Проблемы прогнозирования, (3 (180)), 93-100.
13. Лизина О.М. (2019). Теневая экономика как социально-экономический феномен. Контентус, (S11), 253-261.
14. Чоманов, М., & Сейитмяммедова, А. (2024). АНАЛИЗ ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЕ ВЛИЯНИЯ НА ФИСКАЛЬНУЮ ПОЛИТИКУ СТРАНЫ. Всемирный ученый, 1(21), 612-619.
15. Алимов, Г. А., & Исроилов, Б. И. (2020). Теневая экономика, коррупция, взяточничество: уг оловно-правовая оценка./Монография. Т.: Тафаккур, 200.
16. Ибрагимов, Б. Б. (2019). Пути совершенствовании налогового администрирования в Республике Узбекистан. ББК 65 И 66, 478.
17. Umirov, A. T., & Gulira'no, N. (2024). YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MASALALARI. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 30(2), 151-155.
18. Nabiyeovich, R. J. (2024). SOLIQ INSTRUMENTLAR ORQALI XUFYONA IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISHNING NAZARIY TAHLILI. Journal of new century innovations, 55(1), 63-70.
19. <https://daryo.uz/2023/10/12/xalqaro-valyuta-jamgarmasi-ozbekistonning-yim-osishi-proгноzini-yaxshiladi>
20. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko'lami: baholash natijalari va uni qisqartirish bo'yicha takliflar | Институт макроэкономических и региональных исследований
21. https://www.theglobaleconomy.com/Germany/shadow_economy/
22. https://www.theglobaleconomy.com/rankings/shadow_economy/?mibextid=Zxz2cZ



23. The shadow economy explained | Australian Taxation Office
<https://www.ato.gov.au/about-ato/tax-avoidance/shadow-economy/the-shadow-economy-explained>